



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 31.01.2022 г. № 44

между "Охрана" упр.охр.при УВД Таш. обл. и Ангрен шахар тиббиёт коллежи на общую сумму 3558450

Глава  
Казначейский лицевой счёт

054

400110860274077092600054001

(в суммах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)		Всего
	4293000		
Январь	296 537,50		296 537,50
Февраль	296 537,50		296 537,50
Март	296 537,50		296 537,50
Апрель	296 537,50		296 537,50
Май	296 537,50		296 537,50
Июнь	296 537,50		296 537,50
Июль	296 537,50		296 537,50
Август	296 537,50		296 537,50
Сентябрь	296 537,50		296 537,50
Октябрь	296 537,50		296 537,50
Ноябрь	296 537,50		296 537,50
Декабрь	296 537,50		296 537,50
<b>Всего за год</b>	<b>3 558 450,00</b>		<b>3 558 450,00</b>

Всего 3558450 сум

Три миллиона пятьсот пятьдесят восемь тысяч четыресто  
пятьдесят сум 00 тийин  
сумма прописью

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный 100% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до 30 числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

Главный бухгалтер заказчика

Тожиев Гуломжон Аллонович

Ф.И.О.

(подпись)

Принял работник казначейского  
подразделения

(подпись)

«\_\_\_» 20 \_\_\_ г.

Получил работник  
заказчика

(подпись)

«\_\_\_» 20 \_\_\_ г.

(подпись)

Шаймухаметова Л. З.

Ф.И.О.

**Texnik qo'riqlash markazi (TQM) orqali qo'riqlash xizmati  
ko'rsatish bo'yicha  
SHARTNOMA**

Toshkent viloyati.

144-son

20~~22~~ yil «31» subapre

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi Toshkent viloyati Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshqarma boshlig'i M.M.Mirzabekov (keyingi o'rirlarda «Ijrochi» deb yuritiladi) bir tomonidan, Angren tibbiyot kolleji nomidan mezorey asosida faoliyat yurituvchi raxbari G.A.Tojiev (keyingi o'rirlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) ikkinchi tomonidan, birgalikda «Tomonlar» deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**1-bob. Shartnomaning predmeti**

1. Ijrochi Milliy gvardiya Qo'riqlash bosh boshqarmasi texnik qo'riqlash markazidan (keyingi o'rirlarda TQM deb yuritiladi) foydalangan holda Buyurtmachining mulkini qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, buyurtmachi esa mazkur shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

**2-bob. Umumiy shartlar**

2.1. Buyurtmachi Angren shahar Govoruxin ko'chasi 1-uyda joylashgan Angren tibbiyot kollejini soat 09:00 dan 13:00 gacha 4 (to'rt) soatga, ikki kun dam olish bilan (shanba, yakshanba) Ijrochiga topshiradi. Ijrochi Angren shaxar qo'riqlash bo'limining texnik qo'riqlash markazi orqali qo'riqlash uchun qabul qiladi hamda 0,5-dona shartli belgiga texnik xizmat ko'rsatadi.

2.2. Ob'ektning texnik mustahkamligi to'g'risidagi, qo'riqlash va yong'indan ogohlantiruvchi signalizatsiya (QYOOS) vositalari bilan jihozlangan joylar, kod bilan mahkamlanadigan moslamalar va boshqa ma'lumotlar mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilova va tekshiruv dalolatnomasida ko'rsatiladi.

2.3. Ob'ektning qo'riqlash texnik vositalari bilan ta'minlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Bu vositalarning texnik xizmati va joriy ta'mirlanishi shartnoma asosida Ijrochi injener-texnik xodimlariga alohida to'lov orqali amalga oshiriladi. Ob'ektni qo'riqlash va yong'indan ogohlantiruvchi moslamalar sxemasi shartnomaga ilova qilinadi.

2.4. Qo'riqlash tizimida amalda bo'lgan umum davlat hujjatlari va normativ aktlariga asoslangan holda ob'ektning texnik mustahkamligini kuchaytirish, qo'riqlash vositalariga tadbiq etish va joriy etilgan qo'riqlash tartiblariga amal qilish yuzasidan ko'rsatmalar Buyurtmachi uchun majburiy hisoblanadi.

**3-bob. To'lovlarni amalga oshirish**

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha ko'rsatiladigan xizmat narxi 1 oyda 296537,50 (Ikki yuz to'qson olti ming besh yuz o'ttiz etti so'm) 50 tiyin, yilik summasi 3558450 (Uch millon besh yuz ellik sakkiz ming to'rt yuz ellik) so'mni tashkil qiladi, o'rnatilgan tarif asosida qo'riqlash post-soat hisobi bo'yicha shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan hisob-smetasida hisoblab ko'rsatiladi.

Ijrochi xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

3.2. Buyurtmachi keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin oylik to'loving 100% miqdoridagi pulni Ijrochining hisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.3. Ijrochi xizmati uchun hisob-kitob qilishga o'z mablag'lari bo'limgan xolda. Buyurtmachi belgilangan muddatda yuqori organ (tashkilotlar) markazlashgan fondidan qo'shimcha mablag'lar xisobiga qarzdorlikni qoplaydi.

3.4. Ijrochining qo'shimcha xizmatlari uchun Ijrochi tomonidan xisob yoki bildirish berilganda Buyurtmachi tomonidan 10 kun muddatda pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi

## **4-bob. Tomonlarning xuquq va majburiyatları**

### **4.1. Buyurtmachining majburiyati va huqiqqlari:**

4.1.1. Ob'ektni TQMga ulash uchun qo'riqlashga soz holdagi, ATSGa ulangan telefon tarmog'ini ajratadi.

4.1.2. Qo'riqlashga topshiriladigan ob'ektni texnik mustahkamligini ta'minlash maqsadida tekshiruv dalolatnomasi yuzasidan deraza, tuynuk, eshik, qulf va boshqalarni me'yoriy talablar asosida jihozlaydi va mustahkamlaydi.

4.1.3. Ijrochi vakillariga, ushbu shartnoma asosida olgan majburiyatlarini bajarish uchun erkin kirib chiqishiga sharoit yaratadi.

4.1.4. Ob'ektni qo'riqlashga topshirish va qabul qilish, kalitlarni saqlash va ob'ektni olib ko'zdan kechirish uchun javobgar shaxsni tayinlaydi.

4.1.5. Ob'ektning kaliti yo'qolishi oqibatida uni almashtirilganda, shuningdek, uning butligi buzilganligi aniqlanganda zudlik bilan Ijrochiga xabar beradi.

4.1.6. Begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tizimini hamda pult raqamlarini o'zlashtirmasligi uchun ularni oshkor qilmaydi.

4.1.7. Qo'riqlash signalizatsiya vositalaridan foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qiladi. Ob'ektni blokirovka sxemasiga o'zgartirishlar kiritmaydi, o'z ixtiyori bilan signalizatsiya vositalarini almashtirmaydi. Ijrochi yuzaga kelgan kamchiliklar yuzasidan o'z vaqtida xabardor qiladi.

4.1.8. Ob'ektni qo'riqlash ostiga topshirishdan oldin eshik, deraza, tuynuklarni mahkamlanganligiga ishonch hosil qiladi. Ularni doimiy ravishda soz holda saqlanishini ta'minlaydi.

4.1.9. QYOOS vositalarini ishchi holatini tekshirish uchun kuniga bir marotaba "Tashvish" xabari berish yo'li bilan, Ijrochini telefon orqali xabardor qilgan holda tekshiruv o'tkazadi.

4.1.10. Hisob-smetasi asosida o'rnatilgan tarifda qo'riqlash xizmati uchun har oylik majburiy to'lovni amalga oshirib boradi.

4.1.11. Qo'riqlashning to'lov hisobi va dalolatnomasi asosida quyidagi to'lovlarini amalga oshiradi:

- ob'ektda o'rnatilgan ob'ekt hisobida bo'limgan va uning xatosi bilan ishdan chiqqan texnik vositalarni ta'mirlash uchun;

- ob'ektga o'rnatilgan qo'riqlashga tegishli bo'lgan texnik vositalarni ta'mirlash uchun;

- signalizatsiya vositalarining 5 (besh) yillik foydalanish muddati o'tib, mukammal ta'mirlash uchun;

- TQMni modernizatsiyalashtirilgan qo'riqlash sistemasiga o'tkazilishi munosabati bilan ob'ektni zamonaviy texnika vositalari bilan almashtirish uchun;

- Buyurtmachi aybi bilan berilgan soxta tashvish xabar uchun (ob'ektni NBP navbatchi boshqaruv pulsi) ni xabardor etmagan holda qo'riqlashdan chiqarish, telefon dastagini noto'g'ri holatda qo'yish, mazkur shartnomaning 4.1.8.-bandi talablari (bajarilmaganda) qo'riqlash naryadining kelishiga, har bir kelishi bir oylik to'lov xisobidan 15 % miqdorida jarima belgilanadi.

4.1.12. Signalizatsiya vositalari uchun ulangan elektr va telefon tarmoqlarini o'z vaqtida ta'mirlash choralarini ko'radi.

4.1.13. Ob'ektni mazkur shartnomada ko'rsatilgan tartibda belgilangan davomiylikda va muddatga markazlashtirilgan kuzatuvga topshiradi.

4.1.14. Ob'ektning texnik mustahkamligini va QYOOS vositalari bilan jihozlanishini ta'minlaydi va saqlaydi.

4.1.15. Qo'riqlanayotgan ob'ekt va uning perimetrini tungi paytlarda kerakli yoritish moshlamalari bilan jihozlab, TQM naryadlariga mumkin darajada ko'rinishni ta'minlaydi.

4.1.16. Qo'riqlanadigan ob'ektni toifasiga qarab, devori, tomi hamda derazalari va eshiklarini ko'rsatilgan me'yor darajasida bo'lishini ta'minlaydi.

4.1.17. Qo'riqlanadigan ob'ektda o'zining kuchi hisobidan yong'in xavfsizligi tadbirlarini tashkil etadi va ta'minlaydi.

4.1.18. Ob'ekt vitrinalarida qimmatbaho tovar-moddiy mahsulot namunalaridan qo'yish zarur bo'lganida, ular o'rniga maketlarini qo'yadi. Vitrinalarga qo'yilgan qimmatbaho tovar-moddiy boyliklarni ularning qiymati ko'rsatilgan holda ro'yxatga olib, moddiy jixatdan mas'ul kishi tomonidan imzolanadi va Buyurtmachi muhri bilan tasdiqlanadi.

Mazkur ro'yxatning bir nusxasi vitrinada, ikkinchi nusxasi Buyurtmachining moddiy jihatdan mas'ul shaxsida, uchinchi nusxasi Ijrochiga beriladi.

4.1.19. Saqlash davrida pul mablag'lari, qimmatbaho toshlar, oltin, platinadan ishlangan mahsulotlar, tilla, platina, kumush korpusli soatlar polga mahkamlangan seyflarda saqlanadi. Pul mablag'lari, qimmatbaho metall va toshlardan bo'lgan mahsulotlarni saqlashda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Qimmatbaho metallar qo'mitasining Davlat palatasi tomonidan va yuridik shaxslarning kassa operatsiyalarini yuritish Qoidalari bilan belgilangan talablar limitidan yuqori bo'lsa, saqlashga yo'l qo'yaydi.

4.1.20. Qo'riqlanadigan ob'ektga o'matilgan QYOOS vositalariga Qo'riqlash xodimlarini erkin harakatini ta'minlaydi.

4.1.21. Ijrochi bilan birgalikda bir (kvartal) chorakda bir marta ob'ektni texnik mustahkamligi, qo'riqlash texnik vositalari, shu jumladan QYOOS vositalari bilan jihozlanganligini tekshirib, shu haqda mas'ul vakillar imzosi, qo'yilgan, Buyurtmachi tomonidan mavjud kamchiliklarni bartaraf qilib, Ijrochiga axborot berish uchun muddati ko'rsatilib, dalolatnama tuziladi. Mazkur dalolatnama shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi, unda ko'rsatilgan vazifalar bajariladi.

4.1.22. Tekshiruv dalolatnomasi yuzasidan ob'ektning texnik mustahkamligini oshirish chora-tadbirlarini bajaradi, ob'ektni qo'riqlanishini takomillashtirish, ichki va kirib-chiqish tartibini yaxshilash, moddiy tovar boyliklarni saqlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi va Ijrochiga o'zining vazifalarini ijro etishi uchun ko'maklashadi.

4.1.23. Ob'ekt xududida ta'mirlash ishlari yoki boshqa tadbirlar o'tkazilishi, qo'riqlanadigan joylar va maydonlarni ijaraga topshirilganligi, eski qo'riqlanadigan joylarni o'zgartirish yoki yangisini vujudga kelishi, mazkur ob'ektni boshqa shaxslarga topshirilishi munosabati bilan post joylashuvlari o'zgartirilishi, qo'shimcha postlar qo'yilishi, QYOOS vositalari bilan jihozlanishi lozim bo'lgan taqdirda, Buyurtmachi bu haqda Ijrochiga 15 kun avval yozma ravishda bildiradi.

4.1.24. Ijrochi tomonidan vakolat berilmagan shaxslarga, qo'riqlash va yong'indan ogohlantiruvchi texnik vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishi va ta'mirlashga ruxsat bermaydi.

4.1.25. Ob'ektni TQMga topshirishdan kamida 3 (uch) soat oldin QYOOS vositalarini sozligini, topshirilishini nazorat tariqasida tekshiradi. Nosozlik aniqlanganda zudlik bilan xizmat ko'rsatadigan elektr ta'mirlovchini chaqiradi va bu borada Ijrochiga xabar beradi.

4.1.26. Ob'ekt, QYOOS vositalari bilan jihozlangan har bir alohida xonalarni qo'riqlash postiga, shuningdek TQM ko'rig'iga kunda topshirib boradi, eshiklarning qulflari, derazalarni, tuyuklarni va lyuklarni yopilishi, qo'riqlash signalizatsiya vositalari va tungi yoritish vositalarini holatini tekshiradi, qo'riqlanadigan xonalarda o'chirilmagan elektr moslamalar, boshqa yong'inga olib keluvchi moslamalarni yoqilgan holda qolib ketmasligini va begonalar bo'l shining oldini oladi. ob'ektni topshirilishi to'g'risida TQMga 5 (besh) daqiqadan keyin xabar tushgandan so'ng ob'ekt qo'riqlashga olinganligi to'g'risida ishonch hosil qilinadi.

4.1.27. Ob'ektga begona shaxslar tomonidan ob'ekt yoki alohida xonalarga kirish oqibatida uning butligiga tahdid qilinganligi va sodir etilgan moddiy zarar to'g'risida Ijrochiga xabar berib, Ijrochi vakillari kelgunga qadar voqeа joyini daxlsizligini ta'minlaydi.

4.1.28. Ijrochi tomonidan belgilangan majburiyatlar to'liq bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar miqdorini aniqlaydi va moddiy tovar boyliklarni hisobini olib borish uchun qo'riqlash xodimi ishtirokida moddiy tovar boyliklarni qoldig'i hisoblanadi, shuningdek, Ijrochiga barcha hujjat va ma'lumotlari taqdim etadi.

#### **4.2. Ijrochining xuquq va majburiyatları:**

4.2.1. TQM ko'rigiga topshiriladigan ob'ektning texnik mustahkamligi tekshirilib, uning QYOOS vositalari bilan jihozlanishi lozim bo'lgan joylarga qarab dalolatnoma tuzadi.

4.2.2. Ob'ektida QYOOS vositalarini majburiy jihozlanish joylarini belgilaydi.

4.2.3. Ob'ektga QYOOS vositalarini jihozlanishini tavsiya etadi, ob'ektning zaif joylarini QYOOS vositalari bilan jihozlanishi ob'ekt tomonidan bajarilmagan taqdirda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilovada belgilab qo'yiladi.

4.2.4. Ob'ektni texnik mustahkamligi dalolatnomasiga asosan ob'ekt hisobidan QYOOS vositalari bilan jihozlaydi va telefon aloqasi orqali pultga ulanadi, pult ma'lumotnomalarini taqdim etadi.

4.2.5. Ob'ektdagi QYOOS vositalarini har 5 (besh) yilda to'liq mukammal ta'mirlaydi.

4.2.6. Ob'ekt bilan kelishilgan holda ob'ektga qo'shimcha QYOOS vositalarini o'rnatiladigan taqdirda, tomonlar ushbu SHartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzadilar va ob'ekt ushbu bajariladigan ishlar haqini o'rnatilgan tartibda avvaldan pul to'lovini to'lagandan keyin amalga oshiradi.

4.2.7. O'rnatilgan tartibda ob'ektni qo'riqlashga olishda signalizatsiya vositalari yordamida TQMga ulanishi hamda o'z vaqtida qo'riqlash naryadini tashvish xabari bo'yicha etib borishini ta'minlaydi.

4.2.8. Ob'ekt qo'riqlashda bo'lgan vaqtida ob'ektga ruxsatsiz kirgan shaxsni qo'lga olish chorasini ko'radi.

4.2.9. Xo'jalik idorasi xodimlariga QYOOS vositalarini ishlatilishini o'rgatib, bu borada yo'riqnomalar beradi.

4.2.10. Har bir tushgan soxta tashvish xabari bo'yicha dalolatnoma tuzilib, ob'ekt ochilib ko'rikdan o'tkazilib, tuzilgan dalolatnomaning bir nusxasi Buyurtmachiga beriladi.

4.2.11. Signalizatsiya vositalarini 5 (besh) yil ishlatilgandan keyin mukammal ta'mirlanishini amalga oshiradi.

4.2.12. Xizmat haqi tarifi o'zgargan holda Buyurtmachini xabardor qiladi.

4.2.13. Mazkur SHartnomani to'xtatish yoki bir tomonlama bekor qilinishi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- a) Buyurtmachi 2 (ikki) oydan oshiq qo'riqlash xizmati uchun to'lovlarni to'lamaganda;
- b) Ijrochi tomonidan texnik sabablarga ko'ra o'z majburiyatlarini bajara olmasliklari tufayli (telefon raqami o'zgarganda, telefon o'chirilganda, TQM tugatilganda);
- v) Buyurtmachini nomi o'zgarib, Ijrochini bundan xabardor qilmaganda;
- g) Mazkur shartnomaning 4.1.2., 4.1.3., 4.1.5., 4.1.7., 4.1.8., 4.1.16.-bandlari buzilganda.

4.2.14. Telefon o'chirilganda yoki nosoz bo'lgan holda, elektr manbai o'chirilganda TQP joyi o'zgarganda ob'ekt qo'riqlashga qabul qilinmaydi va bu haqda Buyurtmachini yozma yoki telefon orqali xabardor etadi.

#### **5-bob. Tomonlarning javobgarligi**

##### **5.1. Buyurtmachining javobgarligi :**

5.1.1. Mazkur SHartnomaning 3.1.-bandida ko'rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida to'limganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

5.1.2. Ob'ektni qo'riqlash davrida:

mazkur shartnomaning 4.1.2., 4.1.5., 4.1.6., 4.1.7., 4.1.8., 4.1.12., 4.1.14., 4.1.15., 4.1.16., 4.1.19., 4.1.20., 4.1.23., 4.1.24., 4.1.25., 4.1.26., 4.1.27.-bandlarida ko'rsatilgan talablar Buyurtmachi tomonidan bajarilmaganligi oqibatida javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

##### **5.2. Ijrochining javobgarligi**

5.2.1. Ijrochi mazkur shartnoma ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga etkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi.

Ijrochining aybi bilan zarar etkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to‘liq miqdorda qoplanadi.

Ijrochining aybi bilan etkazilgan zararning miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli xujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a’zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo‘lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

### **5.3. Quyidagi holatlarda keltirilgan moddiy-zararlar uchun Ijrochi javobgar hisoblanmaydi:**

Pul mablag’lar Buyurtmachining ob’ektda qoldirishga haqqi bo‘lmasa holatda, belgilangandan ortiq miqdorda qoldirilsa, shuningdek pul mablag’lari seyf yoki polga mahkamlangan metall shkaf (quti) larda saqlanmagan bo‘lsa, o‘g‘irlansa yoki talonchilik qilinsa;

fugorolarning shaxsiy mulklari o‘g‘irlansa;

bino yopilishi yoki qo‘riqlash uchun qabul qilinishidan oldin kirib olgan shaxs tomonidan o‘g‘irlik yoki talonchilik sodir etilsa;

tovar-moddiy boyliklarning o‘g‘irlanishi yoki talonchilik qilinishida:

bu boshqa mulkdorniki bo‘lib, u qo‘riqlanayotgan xonani ijara olib qo‘riqlash uchun mustaqil shartnomaga tuzilmagan bo‘lsa;

agar Buyurtmachi tomonidan qo‘riqlash signalizatsiyasi yoqilmagani sabab bo‘lsa, ob’ektni qo‘riqlashga topshirmagan yoki qo‘riqlash vositalarining nosozligi haqida ma’lum qilmagan bo‘lsa, shuningdek boshqa texnik sabablarga ko‘ra qo‘riqlash olib borilmagan bo‘lsa;

shartnomaning 4.1.20.-bandi talablari buzilsa, jixozlangan vitrinalardan o‘g‘irlansa yoki talonchilik qilinsa.

Buyurtmachi tomonidan ko‘rsatilgan muddatlarda Ob’ektni texnik mustahkamligidagi talablarni va mazkur shartnomaning 4.1.5., 4.1.6., 4.1.8., 4.1.16., 4.1.24., 4.1.25.- bandlari bajarilmaganligi oqibatida o‘g‘irlik sodir etilsa.

### **6-bob. Nizolarni hal qilish tartibi**

6.1. Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflarni o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek etkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi nizolar qonun xujjatlari belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

### **7-bob. Fors-mojor**

7.1. Tomonlar ushbu shartnomaga bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik shartnomaga tuzilgandan keyin paydo bo‘lgan, engib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-mojor) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.2. Engib bo‘lmaydigan uch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo‘lganligi to‘g‘risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur shartnomaga bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko‘rsatishga xaqli emas.

7.3. Fors-major holatlari suv toshqinlari, er qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong‘inlar, portlashlar, davlat hokimiyyati boshqaruvi organlarining mazkur shartnomasi ijrosiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan qarorlari kiradi.

7.4. Mazkur shartnomaga bo‘yicha majburiyatlarini bajarish muddati engib bo‘lmas kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilishga xaqli.

### **8-bob. YAkuniy qoidalar**

8.1. Mazkur shartnomasi imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.2. Mazkur shartnomaga byudjet tashkilotlari yoki byudjet mablag'lar oluvchilari bilan tuzilganda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

8.3. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiydir.

8.4. Tomonlar mazkur shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi oлganidan keyingina yoki o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

8.5. SHartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha-Tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab 1 yil muddatga tuziladi va tomonlar imzolagan kundan kuchga kiradi;

byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lar oluvchilari bo'yicha-belgilangan tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 2022 yilning 31 dekabr kuni oxirigacha.

Buyurtmachi xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lган taqdirda Buyurtmachi mazkur shartnomani bekor qilish xaqida Ijrochiga shartnomaga muddati tugashidan 15 kun oldin ma'lum qilmasa, mazkur shartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarga uzaytirilgan hisoblanadi.

8.6. Agar texnik qo'riqlash vositalari Buyurtmachining áybi bilan ishdan chiqqan, kapital yoki joriy ta'mirlashni talab qilsa, biroq Buyurtmachi buni rad etsa, Ijrochi Buyurtmachiga etti kun oldin yozma ma'lum qilgan holda alohida ob'ektlarni qo'riqlashni rad etishi mumkin.

8.7. Buyurtmachi ketma-ket uch marta mazkur shartnomaning 3.1.-bandida ko'rsatilgan to'lovnii belgilangan muddatda to'lamasa, Ijrochi mazkur shartnomani Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga xaqli.

8.8. Tomonlar mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida 15 kun oldin yozma ravishda ma'lum qiladi.

8.9. Ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur shartnomaga qonun xujjatlariga muvofiq xuquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

8.10. Ushbu shartnomaga kuchga kirgandan so'ng 20 24 yil 11.10 dagi 1504sonli shartnomaga o'z kuchini yo'qotadi.

## 9.-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

### «IJROCHI»

#### O'z.R Milliy gvardiyasi QBB

#### Toshkent viloyati Qo'riqlash boshqarmasi

Qibray tumani, Salar qo'rg'oni, Ziyokorlar-1 ko'chasi, 50-uy.

X/r 21596000900189870001, INN 200524244, OKED 84240, MFO 00025

O'z.R Markaziy Banki Toshkent viloyati

BBXKKM

Boshqarma boshlig'i

M.M.Mirzabekov



10 peesha

### «BUYURTMACHI»

#### Angren tibbiyot kolleji

Angren tibbiyot kolleji  
Direktori  
G.A.Tojiev



Nº 64 Shartnomaga ilova

**«TASDIQLAYMAN»**

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi  
Toshkent viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi  
boshligi



M.M.Mirzabekov

«31» dekabr 2021 yil

**«KELISHILGAN»**

Angren tibbiyot kolleji  
direktori



G.A.Tojiev

«31» sentyabr 2021 yil

**X I S O B V A R A Q A S I**

Angren tibbiyot kollejini qo‘rig‘ini amalga oshirish uchun  
(01.09.2021 yildagi ta’rifga asosan)

No	Qo‘riqlashturi	Ob‘ekt nomi	Ish kunlari	Bir oylik qo‘riqlash vaqtি (soat)	Bitta post uchun bir soatda tulanadigan narxi (sum)	QYOOS Shartli birligi	Bir dona sim karta uchun to‘lov narxi (sum)	Bir oyda to‘lanadiga n narx (sum)	Jami to‘lov narxi (sum)
1	TQM	Angren tibbiyot kolleji	09:00-13:00 gacha	4 soatga 88	Dam olish kuni 2 kun 3128	0,5x29547=14773-50	6500-00	275264-00	296537-50

Bir‘oyga:296537,50 (Ikki yuz to‘qson olti ming besh yuz o‘ttiz etti so‘m 50-tiyin.)

Toshkent viloyati Qo‘riqlash  
boshqarmasi MIB boshlig‘i

Bosh xisobchi:

A handwritten signature in blue ink, appearing to read "X. X." followed by a stylized signature.